

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SHART MAYLINING QIYOSIY  
TAHLILI**

***Muqimjon Muxammadaminovich Axunov***

*Ilmiy rahbar (PhD) Filologiya falsafa fanlari doktori*

***E-mail: [muqumjon.akhunov@bk.ru](mailto:muqumjon.akhunov@bk.ru)***

***Umarova Munavvar Nurmuhhammadovna***

*Andijon davlat chet tillari instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mualliflar hozirgi ingliz va o'zbek tillarida shart maylining qiyosiy tahlili usullardan foydalanish komponentlari haqida o'z mulohazalarini bayon qilishga harakat qilgan. Bunda mualliflarning diqqat markazida ingliz va o'zbek tillarida shart maylining qiyosiy tahlili asosiy tadqiqot materiali sifatida o'rganilgan. Maqolani tayyorlash jarayonida muallif ingliz va o'zbek tilshunoslarining qarashlariga tanqidiy yondoshgan va o'z mulohazalarini dadil bayon qilgan. Maqola ingliz va o'zbek tili leksikologiyasini o'rganuvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlari:** O'tgan zamон, shart mayli, ergash gap, yordamchi so'з, qo'shimcha,nisbat, sub'yunktiv, aspekt

Qo'shma gap orqali ifodalangan harakat-hodisa o'tgan zamonga oid bo'lganida, bosh gapning keism ko'pincha shartli mayl formasida bo'ladi. Bunday hollarda shart mayli formasidagi fe'l bildirgan harakat bajarilgan taqdirda bosh gshapdagi harakatning bajarilishi aniq ekani ifodalanishi mumkin, lekin shunda ham bari bir, ikkala gapdpg harakat ham bajarilmagan( yo'q noaniq holdagi) harakat bo'ladi. Xullas, shart mayli formasi boshqa biror harakatning bajarilishi uchun shart-sharoit bo'ladigan harakatni bildiradi.

1. Paytni ifodalab, payt ergash gap kesimi vazifasida keladi: ertalab derazadan qarasam,hammayoq oppoq. (Oybek) [2, 284]

Shart mayli formasi hozirgi zamon ko'rsatkichi -yot bilan qo'llansa, hamma vaqt payt ma'nosini ifodalaydi: bir kuni ko'chada ketayotsam Umri bir bosh uzum ko'tarib kelayapti. (A. Qahhor) [2, 28]

Shart tarzidagi harakatni hozirgi zamon ma'nosi bilan ifodalash uchun albatta, "bo'l" yordamchi fe'li qo'llanadi: qiyoslang: borayotsa, boryotgan bo'lsa, ishlayotsa, ishlayotgan bo'lsa. [2, 285]

2. Istak ma'nosini bildiradi: bu ma'noni ifodalaganda mustaqil sodda gapning yoki qo'shma gaplarda bosh gapning kesimi vazifasida ham qo'llana oladi: Sekin po'stini archsang, og'zinga solib, tiling bilan tanglayinga bossang-u, suvini qult-qult yutsang. (A. Qahhor) [2, 285]

3. Iltimos, maslahat ifodalaydi. Bunday hollarda ham istak ma'nosi yo'qolmaydi(istak bo'lmasa, iltimos, maslahat ham bo'lmaydi) lekin unga nisbatan maslahat, iltimos asosiy o'rinda bo'ladi: Agar bemalol bo'lsa, o'sha kishini chaqirib berangiz. Mana shamol ham g'zillab qoldi,... yostiq bersam bir chimdim hordiq chifarsangi. (Oybek). [2, 286]

4. Turli tipdagi sodda va qo'shma gaplarda sabab va sababga yaqin ma'noni ifodalaydi: Yo'q, birda ikkida ham yozmagan bo'lsam uyat bo'ladi. (M. Ismoiliy) Bu begona sel qaytishini qayoqdan biladi,... u avliyo bo'lmas axir! (A. Muxtor) [2, 286]

5. Harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligi manfaatdor bo'lgan shaxs noiloj holatda bo'ladi, ya'ni harakatning bajarilmasligi unga bog'liq bo'lmaydi: Yo'q deb aytsam ishonmasanglar! (M. Ismoiliy) [2, 287]

6.Tarkibida ki yuklamasini olgan inkor formasidagi so'z bo'lgan gaplarda harakatning bajarilish, bajarilmsligiga inkor formasidagi so'z harakat-hodisaga yo'l qo'ymasligi ifodalanadi: "Axir yangi kelgan emassizku, tartibni bilmasangiz." (S. Ahmad) [2, 287]

7.Qarama-qarshi qo'yilayotgan narsa-hodisani bidiruvchi so'z inkor formasida bo'lmasligi mumkin. Lekin uning inkor mazmuniga ega ekanligi kontekstdan sezilib turadi va bu so'z -mi yuklamasi bilan qo'llanadi: "Sen yosh bolamisanki, oying bilan maslahatlashsang. (O. Yoqubov) [2, 288]

8. Shart mayli formasi “ham” yoki –da yuklamasi bilan qo‘llanganda to‘siksizlik ma’nosini bildiradi va to‘siksiz yergash gapning kesimi vazifasida keladi: Ey, qo‘ying, hafa bo‘lmang ularni, bola-da, sho‘xlik qilsalar ham, juda to‘ydirib sug‘oryaptilar. (Oybek) [2, 288]
9. Shart mayli formasi boshqa biror xodisaning juda “boshqacha” bo‘lishini normal holatdan ortiq darajada bo‘lishini ifodalaydi: “Ichini ko‘rsang, voy biram gilamlar bilan yasatib qo‘yilganki, og‘zing ochiladi”. (Sh. Rashidov) [2, 288]
10. Tarkibida “ehtimol” so‘zi qo‘llangan gaplarda shart mayli formasining ma’nosи gumon ifodalovchi formulalar ma’nosiga juda yaqin turadi. Qiyoslang: Ehtimol, kelib qolsa – Ehtimol, kelib qolar, Ehtimol kelgan bo‘lsa – Ehtimol kelgandir. Lekin bu formalar ma’no jihatdan bir-biriga butunlay teng bo‘lmaydi. Bunday gaplarda shart mayli formasi qo‘llangan hollarda harakatning bajarilishiga tarafdarlik, istak ma’nosи ham sezilib turadi: lekin og‘amning topishi zo‘r, yaqinda, ehtimol, uy olib chiqib ketsa. (Oybek) [24, 341]
11. Shart mayli formasi –ni yuklamasi bilan qo‘llanganda buyrq istak mayliga xos ma’nolar ifodalanadi: bu yoqqa kelsangizchi quda birpas chaqchalashaylik. (A. Qahhor) [24, 341]
12. Shart mayli formasi qo‘shma gapning ыir necha turlarida ergash gapni bosh gapga bog‘lash uchun xizmat qiladi: shariatning yo‘li ko‘p ekan, bittasi berk bo‘lsa, to‘rttasi ochiq. (A. Qahhor) Qayerdan o‘t ochilsa o‘sha tomonga granata yog‘diriladi. [24, 341]
13. Shart mayli formasi –chi yuklamasi yoki qani so‘zi bilan birgalikda inkor ma’nosini iodalanishida ham xizmat qiladi. Bunday hollarda gap intonatsiyasi ham o‘ziga xos bo‘ladi: Qani endi bu maslahatga ko‘nsa! [24, 341]
14. Shart mayli formasi bir necha turdagи analitik formasining yasalishida qatnashadi: ko‘nsa kerak, olsa bo‘ladi, bormasang bo‘lmaydi, ketsa ketsin kabi. Bunday analitik formalarning ma’nosи shart mayli bilan unga birikkan yordamchi so‘zning ma’nolari yig‘indisidan kelib chiqadi.

Shart mayli formasi -(a), -(r) mas affiksi bilan yasaluvchi sifatdoshga edi to‘liqsiz fe’lining birikuvidan hosil bo‘ladi: ishlar edi, so‘zlar edi, kelar edi kabi. Bu

mayl turi bajarilishining biror sharti bo'lgan bajarilishi biror harakatga bog'liq bo'lgan harakatni bildiradi, ya'ni bu forma bildirgan harakatning bajarilishi-bajarilmasligining sharti bor bo'ladi: Agar sen Yo'lchining bolasi bo'lsang edi, men unga allaqchon xabar berar, undan suyunchi olib quvonar edim. (Oybek) [24, 342]

Shart ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gapning kesimi ijro mayli formasidagi fe'llardan bo'lganda ham bosh gapdagi harakatning biror shart bilan bog'langanligi ifodalanadi. Shunga ko'ra, shart bilan bog'langanlik jihatidan shartli mayl formasi boshqa mayl formalaridan farqlanmaydiganday ko'rindi.

Masalan: Ertaroq kelsa, kinoga borar edik va ertaroq kelsa, kinoga boramiz. [24, 343]

Gaplarining ikkalasida ham kinoga borishining ertaroq kelishiga bog'liqligi ifodalanadi. Lekin, "ertaroq kelsa kinoga boramiz" gapida shart borligi ma'nosi bevosita shart mayli formasi orqali ifodalanadi, boramiz formasining o'z shunday shart borligini ko'rsata olmaydi. Bundan tashqari shartli mayl formasi shart mayli formasidagi bildirgan harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligini so'zlovchining aniq bilmasligi kabi qo'shimcha ma'nolarini ham ifodalaydi.

Shartli mayl formasiga xos xususiyatlardan yana biri shuki, bu formadagife'l bildirgan harakat hamma vaqt bajarilmagan, yuzaga kelmagan harakat bo'ladi. Xatto, qo'shma gap bildirgan harakat-xodisa o'tgan zamonga oid bo'lganida ham shartli mayl formasidagi fe'l bildirgan, harakat bajarilmagan, yuzaga kelmay qolgan harakat bo'ladi.

Shartli mayl formasida harakatning inkori, yuz bermaganligi ifodalanishidan, bu maylning bo'lishsiz formasi qo'llanilganda mantiqan harakatning bajarilganligi ma'nosi kelib chiqadi. Agar siz yaxshi odam bo'lsangiz, uydagi sirni ko'chaga chiqarmasdingiz. [24, 343]

Shartli mayl formasi qatnashgan gaplarda harakat natijasining kimga qaratilganligi, harakat holatining qaysi zamonda va shu kabilarga qarab so'zlovchining orzu-istagi, harakatga da'vat etishi, harakatning bajarilishi haqidagi o'yi va shu kabi ma'nolar ifodalanishi mumkin. Lekin bu ma'nolar bevoita mayl formasining o'ziga xos ma'nolari bshlmaydi. Agar hozir qilsalaring kechqurunga

pravleniye chaqirib berar edik. [24, 344]

Lekin istak harakatga qo‘zg‘atish, maslahat kabi ma’nolar bevosita shartli mayl formasining o‘ziga xos ma’no bo‘lmay, boshqa faktorlarning ta’sirida kelib chiquvchi ma’nolar bo‘ladi. Shartli mayl formasi qo‘llangan gaplarda istak, maslahat, harakatga qo‘zg‘otish kabi ma’nolar ifolanmasligi mumkin.

Agar Pirimql Zumradga bildirib qo‘ymasa, biz undan ajrab qolgan bo‘lardik. (B. Rahmonov). [24, 344]

Yuqoridagi misollarning hammasida ham bevosita shartli mayl formasiga xos bo‘lgan ma’no harakatning biror shart bilan bog‘liq ekani ma’nosi bo‘lib, boshqa qo‘shimcha ma’nolar, turli faktorlarning ta’sirida kelib chiqadigan ma’nolar bo‘ladi. Ingliz tilida shart mayli sub’yunktiv mayli bilan beriladi.

Sub’yunktiv mayl so‘zlovchining ish harakatga bo‘lgan hoxish istak, faraz qilishi, shart qo‘yishi kabi munosabatlarni bildiradi. Boshqacha qilib aytganda sub’yunktiv maylidagi fe’llar ish harakatning umuman noreal ekanligini ko‘rsatadi.

Hozirgi ingliz tilida sub’yunktiv maylidagi muammolar har xil grammatikalarda turlicha talqin etilgan. A. Smirniskiy klassifikatsiyasiga asoslangan holda, J. B. Bo‘ronov sub’yunktiv maylini to‘rt guruhga bo‘ladi. Ya’ni ular: sub’yunktiv I, sub’yunktiv II, sub’yunktiv III, sub’yunktiv IV. O‘z-o‘zidan savol tug‘uladi nimaga endi ingliz tilida to‘g‘ridan to‘g‘ri “sub’yunktiv” deyish o‘rniga shart mayli deb yuritilmayapti. J. Bo‘ronovning fikricha, ingliz tilidagi sub’yunktiv mayli o‘zbek tilidagi shart maylidan tubdan farq qiladi, chunki ingliz tilidagi termin ahamiyatliroq. Su’yunktiv I turkmiga kiruvchi fe’llr formalariga ko‘ra, to‘g‘ridan-to‘g‘ri hech qanday shaxs qo‘shimchalarisiz yasaladi. U aniqmas maylidagi Present Indefinite dan uchinchi shaxs birlikda –(ye) s qoshimchasini olmasligi jihatidan farq qiladi. [6, 237]

Aniq nisbat

(Active voice)

I send

He send

She send

Majhul nisbat

( Passive voice)

I be sent

He be sent

She be sent

It send	It be sent
We send	We be sent
You send	You be sent
They send	They be sent

Sub'yunktiv I istak, tilak, buyruq, maslahat, nasihat, noaniqlik va faraz qilish kabilarni bildiradi.

Sub'yunktiv II ning bir necha formalari mavjud:

- 1) Umumiy aspektagi perfekt bo'lмаган sub'yunktiv II
- 2) Umumiy aspektagi perfekt sub'yunktiv II
- 3) Davomli aspektagi perfekt sub'yunktiv II
- 4) Davomli aspektagi perfekt bo'lмаган sub'yunktiv II

1 Umumiy aspektagi perfekt bo'lмаган sub'yunktiv II aniq va majhul nisbatda bo'ladi. Sub'yunktiv II ning aniq nisbatdagi formasi aniqlik maylining umumiy aspektagi o'tgan zamon shakli kabi yasaladi.

“to be” fe'li bundan mustasno bo'lib, sub'yunktiv II formasi “were” dir.

Masalan:	I were	We were
	He were	You were
	She were	They were
	It were	

Umumiy aspektagi perfekt bo'lмаган sub'yunktiv II ning majhul darajasidagi formasi “to be” fe'lining sub'yunktiv II dagiformasiga yetakchi fe'lining sifatdosh II formasini qo'shilishi bilan yasaladi. Maslan:

I were sent	We were sent
He were sent	You were sent
She were sent	They were sent
It were sent	

2. Umumiy aspektagi perfekt sub'yunktiv II aniqlik maylining umumiy aspektagi perfekt o'tgan zamon formasiga omonimdir.

Aniq nisbat

I (he, she, it) had sent

We (you, they) had sent

Majhul nisbat

I (he, she, it) hadbeen sent

We (you, they) hadbeen sent

3. Davomli aspektdagi perfekt bo'lmanan sub'yunktiv II “to be” fe'lining sub'yunktiv II dagiformasiga (were) yetakchi fe'li sifatdosh I ni qo'shishi bilan yasaladi.

I were sending

We were sending

He were sending

You were sending

She were sending

They were sending

4. Davomli aspektdagi perfekt sub'yunktiv II ning formasi anqlik maylining davomli aspektdagi perfekt o'tgan zamon formasiga omonimdir.

I had been sending

We had been sending

He had been sending

You had been sending

She had been sending

They had been sending

Hozirgi ingliz tili were formasi o'rnida was formasini ishlatalishi ham uchrab turadi, lekin bu hodisa ham adabiy tilga kirgani yo'q. I wish I was young. (Doyle)[11, 134]

Sub'yunktiv II formasidagi fe'llar ma'nolariga ko'ra, ya'ni anglashilgan ish-harakat umuman yuzaga chiqadigan bo'lmaydi. Sub'yunktiv II formasidagi fe'l ko'pincha xohish, istakni ifodalaydi. He wished his wife were with him. (Doyle) [11, 134]

Sub'yunktiv II ning perfekt bo'lmanan formasi perfekt formasiga qarama-qarshi qo'yiladi. Uning perfekt bo'lmanan formasi ma'nosiga ko'ra hozirgi zamonga yaqinroq bo'ladi, ammo ularning zamon ma'nosisi bosh gapdagi fe'l formasining ma'nosiga bog'liq bo'ladi. Ergash gapdagi perfekt bo'lmanan forma ko'proq bosh gapdagi harakat bilan bir vaqtida bo'ladi, gap harakatni ifodalasa, perfekt forma bosh gapdagi harakatdan avval bo'ladigan harakatni ifodalaydi.

Sub'yunktiv II formasining zamon ifodalashi quyidagicha:

a) bosh gapdagi fe'l forması hozirgi zamonda bo'lsa, ergash gapdagi perfekt bo'lmanan sub'yunktiv II hozirgi zamoni ifodalaydi. You speak as it if were for you amusement. (Wells) [11, 134]

v) agar bosh gapdagi fe'l hozirgi zamon bo'lib, ergash gapdagi fe'l perfekt sub'yunktiv II formasida ishlatsa, ergash gapdagi ish-harakat bosh gapdagi harakatdan avval sodir bo'ladi.

"I feel as if I'd got into a novel instead of a house", said the lawyer.(Doyle) [11, 134]

s) bosh gapdagi fe'l o'tgan zamonda bo'lib, ergash gapdagi fe'l perfekt bo'lmanan sub'yunktiv II formasida bo'lsa, ergash va bosh gapdagi ish-harakat bir vaqtda yuzaga chiqadi. Suddenly he left responsible for being as is he were the master of the house. (Doyle) [11, 134]

d) bosh gapdagi fe'l o'tgan zamonda ergash gapdagi fe'l perfektdagi sub'yunktiv II formasida bo'lsa, ergash gapdagi ish-harakat bosh gapdagi ish harakatdan avval yuzaga chiqadi. What ever she felt grand or no she at any rate felt different, fell as if it had happened to her.(Dreiser) [11, 134]

ye) Agar qo'shma gapning ikkala qismida perfekt forma ishlatsa, ikkala gapdagi ish harakat bir vaqtda yuzaga chiqadi.

By George if he hadn't missed me I'd have been a nice state. (Dreiser) If we had been allowed to sit down, we should all have fallen in the blues(H.Munro) [11, 135]

f) shart ergash gapdagi perfekt bo'lmanan sub'yunktiv II nutq so'zlab, turgan vaqtda yoki kelgusida bo'ladigan ish harakatni ifodalaydi.

If all the good people were hidden a way in convents how would the world go on? (Ibid) [11, 135]

Sub'yunktiv II quyidagi gaplada ishlataladi:

1) sodda gaplarda istak, xoxish, maslahat, nasihat kabilarni ifodalaydi.

"Oh that I were dead!"-she murmured.(Ibid) [11, 136]

Bu ma'noda sub'yunktiv II modal fe'llar bilan ham ishlataladi. You should have

brought a fishing line along. (Ibid) [11, 136]

Sub'yunktiv II frazeologik iboralarga kiruvchi had better, would rather would have kabi birikmalarda ishlatilishi mumkin.

You had better sit down. But I think we had better go.(Doyle) [11, 136]

Ergashgan qo'shma gaplarda ishlatilishi mumkin.

Ega ergash gapli qo'shma gaplarda It's high time he were in bed. kesim ergash gapli qo'shma gaplarda Ithad been as if a big gun were fired off behind her. It was as though he allowed his saw thoughts. (Dreiser) [11, 137]

s) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapda xoxish, istakni bildiradi. I wish I could wash the blood off before I go back. (Dreiser) [11, 137]

d) o'xshatish yoki solishtirma ergash gapni qo'shma gaplarda. He has booted and spurred as if he had dismounted from a long ride. (Dreiser) [11, 137]

e) Shart eargash gapli qo'shma gaplarda sub'yunktivII faqat real bo'lman voqealarni tasvirlash uchun ishlatiladi.

And if there were to be a revolution he would come off very easily. (Dreiser) [11, 138]

g) to'liqsiz ergash gapli qo'shma gaplarda

When if I (had) been an engineer I should have tried to translate that technical text into English. [11, 138]

Sub'yunktiv III barcha shaxslarda should ko'makchi fe'lidan keyin yetakchi fe'lning infinitiv shaklini keltirish bilan yasaladi. Sub'yunktiv III formasidagi fe'llarda ham perfekt , aspekt, nisbat kategoriylarining oppozisiyalari, perfekt va perfekt bo'lman aniq va majhul nisbat formalari mavjud.

Zamon kategoriyasi sub'yunktiv III uchun xos emas. Ba'zan bir ish harakatdan oldin yuzaga chiqqanligi perfekt sub'yunktiv III formasi yordamida ifodalash mumkin. Ma'no jihatdan maylning sub'yunktiv III formasi faraz qilish, zaruriyat, buyruq, maslahatberish, achinish yoki hayratlanish kabi ma'nolarni anglatadi. Sub'yunktiv III bilan I ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lganligi sababli ko'pgina hollarda gaplardan birining o'rniga birini ishlatish mumkin. Sub'yunktiv III quyidagi hollarda ishlatiladi.

1) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarda. Bunda bosh gapning kesimi ko'proq buyruq, maslahat, faraz, hoxish, qo'rquv kabi ma'nolarni anglatuvchi fe'llar bilan ifodalanadi.

I don't see why you think Mrs. Louchats niece should matter very much to me.  
(Dreiser) [31, 167]

2) ega ergash gapli qo'shma gaplarda: "It's impossible I should wait for you"-  
Mrs. Louchats answered. (Dreiser) [31, 167]

3) maqsad ergash gapli qo'shma gaplarda: "You but I won't say it again less  
you should be disappointed at them.(Wells) [31, 167]

4) Shart ergash gapli qo'shma gaplarda: "If he should marry Miss Anchor I  
suppose he'd be have like a gentlemen. Should he come tell him to wait for me.  
(Dreiser) [31, 167]

Maylning sub'yunktiv IV formasи birinchi shaxs birlik va ko'plikda should  
ko'makchi fe'lini qolgan barcha shaxslarda esa, would ko'makchi fe'lini, mustaqil  
fe'lni infinitiv formasini qo'yish bilan yasaladi.

Aniq nisbat	Majhal nisbat
I should send	I should be sent
He would send	He would be sent
She would send	She would be sent
It would send	It would be sent
We should send	We should be sent
You would send	You would be sent
They would send	They would be sent

Sub'yunktiv IV ish-harakat yoki holatning sodir bo'lganligi, ammo ma'lum  
sharoitda uni amalga oshirish mumkinligini va u muayyan sharoit bo'limgani  
sababli yuzaga chiqmay qolganligini bildiradi.

It you were not going a way you'd know me better. I should have done so if I  
had known you were there. (H.Munro) [29, 181]

Ingliz tilidagi umumiyl aspektdagi perfekt bo'limgan sub'yunktiv IV ga o'zbek  
tilida -ar, edi bilan yasaluvchi forma umumiyl aspektdagi perfekt sub'yunktiv IV ga

o'zbek tilida –gan, –ar edi bilan yasaluvchi formalar davomli aspektdagi perfekt va perfekt bo'lmagan sub'yunktiv IV ga yotgan bo'lar edi bilan yasalgan forma to'g'ri keladi.

Sub'yunktiv IV quyidagi gaplarda ishlataladi:

1. Sodda gaplarda

He would fight for him, do anything for him. We would be very happy to believe that. (H.Munro) [29, 181]

2. Ergash gapli qo'shma gaplarda

a) to'siqsiz ergash gapli qo'shma gapning bosh gapida

Even if it were dark he would go home. (Doyle) [29, 181]

a) shart ergash gapli qo'shma gapning bosh gapida

If were to wait three months it would make no difference. (H.Munro)

[29, 181]

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Bo'ronov J.B. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. T.: O'qituvchi, 1973.
2. Bo'ronov J.B. Ingliz tili grammatikasi T.:O'qituvchi, 1973.
3. G'apporov M. Ingliz tili grammatikasi. T.: Turon – Iqbol, 2006.
4. Kaushanskaya V. Practical Grammar of the English language. "Prosvesheniye", 1971.
5. Kachalova K.N., Izrailovich Ye. Ye. Prakticheskaya grammatika angliyskogo yazyka. Bishkek: Turkistan, 2007
6. Nurmonov A.N. O'zbek tilinazariy grammatikasi. T., «Fan», 1998
7. Nurmonov A.N. Hozirgizamono'zbek adabiytilidantablisalar. Andijon, 1985.
8. Nurmonov A.N., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. T., «Fan», 2008.